

GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MEDIAMADANIYAT

Radjabova Manzura Xurramovna

Samarqand davlat pedagogika instituti assistenti

manzuraradjabova83@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada globalizatsiya jarayonida mediamadaniyatning shakllanishi, uning jamiyatdagi kommunikativ, axloqiy va estetik ahamiyati tahlil qilinadi. Mediamadaniyat fenomeni ijtimoiy ong, axborot texnologiyalari va global axborot oqimlari bilan o‘zaro aloqador holda ko‘rib chiqilib, yoshlar ongida media ta’sirining falsafiy jihatlarini yoritiladi.

Kalit so‘zlar: globalizatsiya, mediamadaniyat, axborot jamiyati, kommunikatsiya, mediasavodxonlik, madaniy identiklik.

MEDIA CULTURE IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Annotation: This article analyzes the formation of media culture in the context of globalization, as well as its communicative, ethical, and aesthetic significance in society. The phenomenon of media culture is examined in relation to social consciousness, information technologies, and global information flows, while the philosophical aspects of media influence on the consciousness of youth are highlighted.

Keywords: globalization, media culture, information society, communication, media literacy, cultural identity.

МЕДИАКУЛЬТУРА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация: В данной статье анализируется формирование медиакультуры в условиях глобализации, а также её коммуникативное, этическое и эстетическое значение в обществе. Феномен медиакультуры рассматривается во взаимосвязи с общественным сознанием, информационными технологиями и глобальными информационными потоками, при этом освещаются философские аспекты влияния медиа на сознание молодежи.

Ключевые слова: глобализация, медиакультура, информационное общество, коммуникация, медиаграмотность, культурная идентичность.

XXI asr – bu axborot texnologiyalari va raqamli kommunikatsiya vositalari global ijtimoiy-madaniy jarayonlarga chuqur ta’sir o‘tkazayotgan davrdir. Globalizatsiya nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarida, balki madaniyat va ijtimoiy ongda ham yangicha shakllanishlarni yuzaga keltirdi.

Aynan shu jarayonda **mediamadaniyat** tushunchasi insoniyatning yangi kommunikativ muhitini anglashda muhim kategoriyaga aylandi. Axborot asri global mediamakonning shakllanishi, yagona jahon axborot maydonining yaratilishi bilan bog‘liqdir. Aslida bu “raqamli sivilizatsiya” deb ataluvchi yangi davr bo‘lib, u

zamonaviy “axborot industriyasi”ning jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalariga mislsiz, ilgari kuzatilmagan darajadagi ta’siri bilan ajralib turadi.

Global media tizimi orqali madaniyatlar o‘zaro ta’sirga kirishmoqda, milliy qadriyatlar esa global axborot oqimida qayta talqin qilinmoqda. Shu sababli mediamadaniyat masalasi bugungi kunda ijtimoiy-falsafiy, estetik va axloqiy jihatdan tahlil etilishi zarur bo‘lgan dolzarb mavzulardan biridir.

Amerikalik futurist E. Toffler ta’kidlaganidek, hozirgi dunyoda media sohasida ulkan hokimiyat uchun kurash ketmoqda. Yangi moddiy va ma’naviy qadriyatlar tizimi to‘liq ravishda axborot, g‘oya va ramzlarning chaqqon aloqa hamda tezkor tarqalishiga bog‘liq. Hatto bugungi iqtisodiyot ham “superramzlar iqtisodiyoti” deb atalmoqda. Insoniyat esa aql va tafakkur “paroli” bo‘lgan yangi turdagi fikrlash tizimiga tomon harakat qilmoqda[1].

Kelajakni bashoratlar ekan, iqtisodiy tayanchi sifatida elektron mediamadaniyatni ko‘rgan mashhur amerikalik futurist dunyodagi ijtimoiy o‘zgarishlarni texnik taraqqiyotning bevosita aks-sadosi sifatida talqin etadi, bu jarayonga globallashuv mafkurasini ham kiritadi: “Globallashuv yoki hech bo‘lmaganda millatlararo (supranatsional) tizim — bu davlat chegaralarini hisobga olmagan holda faoliyat yuritishi kerak bo‘lgan yangi xo‘jalik yuritish uslubining tabiiy ifodasidir. Shuningdek, bu mafkuraning keng tarqalishi bugungi kunda ommaviy axborot vositalarini boshqarayotgan shaxslarning shaxsiy manfaatlariga ham mos kelishi ayondir.

Bu esa shuni anglatadiki, qit’alarni birlashtira oladigan global mediamakon tobora faolroq tarzda hokimiyat tizimi va jamiyatga — nafaqat alohida mamlakatlar ichida, balki butun dunyo miqyosida ham — kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Globalizatsiya jarayonlari natijasida insoniyat yagona axborot maydoniga kirib bordi. Internet, sun’iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar orqali ma’lumotlar soniyasiga millionlab uzatilmoqda.[2] Bu holat inson tafakkurining tezkorligini, shuningdek, axborotni tanlash va tahlil qilish madaniyatini talab etadi. Shu nuqtai nazardan mediamadaniyat — bu insonning media orqali o‘zini va dunyoni anglash, axborotdan maqsadli foydalanish, tanqidiy fikrlash hamda ijtimoiy mas’uliyatni his etish qobiliyatidir.

Falsafiy jihatdan mediamadaniyatni ijtimoiy ongning yangi shakli deb baholash mumkin. Chunki u inson va axborot o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, ma’no yaratish va qadriyatlarni qayta ishlab chiqish jarayonidir. M. Maklyuan fikricha, har bir yangi media vositasi inson sezgi tizimining kengayishidir, ya’ni media insoniyatning “sunniy organlari” sifatida faoliyat yuritadi [3]. Demak, mediamadaniyatda inson passiv axborot iste’molchisi emas, balki faol ishtirokchisi sifatida chiqadi. Har bir foydalanuvchi kontent yaratuvchiga aylanadi va shu orqali ijtimoiy ongning shakllanishiga hissa qo‘shadi. Shu jihatdan mediamadaniyat – bu axborotning axloqiy-estetik iste’moli madaniyatidir.

Global media tizimi madaniyatlar o‘rtasida chegaralarni yo‘qotmoqda, biroq shu jarayonda milliy identiklikni saqlab qolish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda . Global brendlar, ommaviy madaniyat, G‘arb standartlari ko‘plab davlatlarda,

jumladan O'zbekistonda ham yoshlarning dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli **milliy mediamadaniyatni** shakllantirish, o'z tarixiy, madaniy va axloqiy qadriyatlarni raqamli muhitda ifoda etish muhim strategik vazifadir [4].

Xulosa qilib aytganda, globalizatsiya sharoitida mediamadaniyat zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-falsafiy fenomeni sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalar, global axborot tarmoqlari va transmilliy media oqimlari insonning dunyoni idrok etish usullarini, ijtimoiy ong shakllarini hamda madaniy identifikatsiya jarayonlarini tubdan o'zgartirmoqda. Mediamakon endilikda nafaqat axborot almashinuvi muhiti, balki qadriyatlar ishlab chiqiladigan, ijtimoiy me'yorlar shakllanadigan va ijtimoiy tajriba reproduksiya qilinadigan murakkab madaniy makonga aylanmoqda.

Global media madaniyatining kengayishi bir tomondan madaniyatlararo muloqot, ochiqlik va bilimlar almashuvini kuchaytirs, ikkinchi tomondan standartlashuv, madaniy geterogenlikning susayishi hamda mahalliy qadriyatlarning zaiflashuvi kabi xavflarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, yoshlar ongida global ommaviy madaniyat namunalarini orqali iste'molchilik, fragmentar tafakkur va algoritmik yo'naltirilgan xulq-atvor shakllarining mustahkamlanishi muhim falsafiy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, mediamadaniyatni rivojlantirish jarayoni mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash va aksiologik yo'nalganlik bilan uzviy bog'liq bo'lishi zarur. Global mediamakonda shaxsning ijtimoiy va madaniy barqarorligini ta'minlash, uning identiklik va mafkuraviy immunitetini shakllantirish uchun milliy madaniy an'analar, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, globalizatsiya sharoitida mediamadaniyatni falsafiy jihatdan anglash nafaqat media jarayonlarini tahlil qilish, balki inson, jamiyat va madaniyat o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqalarni chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Bu esa zamonaviy jamiyatda axborot xavfsizligi, ijtimoiy ong barqarorligi va yosh avlodning madaniy kamolotini ta'minlashda muhim nazariy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тофлер Е. Метаморфозы власти. Москва, 2003. – В. 16–17.
2. Robertson, R. *Globalization: Social Theory and Global Culture*. – London: Sage, 1992.
3. McLuhan, M. *Understanding Media: The Extensions of Man*. – New York: McGraw-Hill, 1964.
4. Karimova D. "Global axborot makonida yoshlar mediamadaniyatini shakllantirish muammolari." – *Falsafa va hayot*, №2, 2023.